

“Uyat” leksik-semantik maydonining asosiy leksik birliklari qiyosiy tahlili: etimologik va semantik asoslar

Xolmurodova Gulhayo Ne'matovna
guli15081994@gmail.com
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
tayanch doktoranti

Annotatsiya. Zamonaviy lingvistikada an'anaviy leksik semantika yo'nalishi bilan birgalikda, struktural, psixolingvistik, generativ, konseptual hamda kommunikativ semantika kabi yangi sohalar ham taraqqiy etmoqda. An'anaviy semantika ko'proq alohida so'zlar yoki so'z birlashmalarining qo'llanilishi va ularning ma'nolaridagi tarixiy o'zgarishlarni tadqiq etsa, struktural semantika yo'nalishi (M.M. Pokrovskiy, F. de Sossyur, L. Yelmslev, I. Trir, V. Porsig, D. Vaysgerber, L. Tener va ularning shogirdlari tomonidan ishlab chiqilgan) til tizimidagi ma'nolar, leksik-semantik paradigmlar hamda turli semantik maydonlar o'rtasidagi tizimli munosabatlarni o'rganishni asosiy vazifa sifatida belgilaydi. Biz tadqiq qilayotgan “Uyat” tushunchasi turli madaniyatlar va tillar uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan murakkab emotsional, ijtimoiy va axloqiy hodisadir. O'zbek madaniyatidagi “uyat” tushunchasi ko'pincha “nomus”, “or”, “andisha” kabi tushunchalar bilan uzviy bog'liq bo'lib, ular birgalikda muayyan axloqiy-etik tizimni tashkil etadi. Bu tizim oila qadriyatlarini, kattalarni hurmat qilish, jamiyat me'yorlariga rioya qilish kabi jihatlarga asoslanadi. Ingliz tilidagi “shame” tushunchasi esa ko'proq shaxsiy qadriyatlar, o'z-o'zini hurmat qilish va shaxsiy rivojlanish kabi individualizmga asoslangan tushunchalar bilan bog'liq.

Kalit so'zlar: leksik-semantik maydon, “uyat”, semantik tahlil, ekvivalent, maydon komponenti, tushuncha.

Comparative analysis of the main lexical units of the lexical-semantic field “Shame”: etymological and semantic foundations

Xolmurodova Gulhayo Ne'matovna
guli15081994@gmail.com
Uzbek State World Languages University
Basic doctoral student

Annotation. In modern linguistics, alongside the traditional field of lexical semantics, new areas such as structural, psycholinguistic, generative, conceptual, and communicative semantics are also developing. While traditional semantics primarily investigates the use of individual words or word combinations and their historical meaning changes, structural semantics (developed by M.M. Pokrovsky, F. de Saussure, L. Hjelmslev, I. Trier, V. Porzig, D. Weisgerber, L. Tesnière, and their disciples) identifies as its main task the study of meanings in the language system, lexical-semantic paradigms, and systematic relationships between various semantic fields. The concept of “shame” that we are investigating is a complex emotional, social, and moral phenomenon of significant importance across various cultures and languages. In Uzbek culture, the concept of “shame” is often closely connected with concepts such as “honor”, or dignity, and “andisha” (consideration), together forming a specific moral-ethical system. This system is based on aspects such as family values, respect for elders, and adherence to societal norms. In English, the concept of “shame” is more associated with individualism-based concepts such as personal values, self-respect, and personal development.

Keywords: Lexical-semantic field, shame, semantic analysis, equivalent, component, concept.

Сравнительный анализ основных лексических единиц лексико-семантического поля “Стыд”: этимологические и семантические основы.

Холмуродова Гулхаё Неъматовна
guli15081994@gmail.com

Ўзбекистон Республикасидаги
Ўзбекистон давлат тилшунослик университети
Докторант

Аннотация. В современной лингвистике, наряду с традиционным направлением лексической семантики, развиваются и новые области, такие как структурная, психолингвистическая, генеративная, концептуальная и коммуникативная семантика. В то время как традиционная семантика в основном исследует употребление отдельных слов или словосочетаний и исторические изменения их значений, структурная семантика (разработанная М.М. Покровским, Ф. де Соссюром, Л. Ельмслевом, И. Триром, В. Порцигом, Д. Вайсгербером, Л. Теньером и их последователями) определяет своей главной задачей изучение значений в языковой системе, лексико-семантических парадигм и систематических отношений между различными семантическими полями. Исследуемое нами понятие “стыд” представляет собой сложное эмоциональное, социальное и моральное явление, имеющее большое значение в различных культурах и языках. В узбекской культуре понятие “стыд” часто тесно связано с такими понятиями, как честь, достоинство и рассудительность, вместе образующими определенную морально-этическую систему. Эта система основана на таких аспектах, как семейные ценности, уважение к старшим и соблюдение общественных норм. В английском языке понятие “shame” (стыд) больше ассоциируется с понятиями, основанными на индивидуализме,

Ключевые слова: Лексико-семантическое поле, стыд, семантический анализ, эквивалент, компонент, понятие. такими как личные ценности, самоуважение и личностное развитие.

Zamonaviy tilshunoslikda leksik-semantik maydon nazariyasi til birliklarini yaxlit tizim sifatida o'rganishning muhim metodologik asoslaridan biri hisoblanadi. Mazkur nazariya nemis olimi Y. Trir tomonidan XX asrning 30-yillarida ilgari surilgan bo'lib, unga ko'ra, ma'lum bir tildagi leksik birliklar semantik jihatdan tartiblashgan tizimni tashkil etadi va bu tizim doirasidagi har bir birlik o'zaro aloqador ma'nolari bilan maydon hosil qiladi (Trir, 1934). Keyinchalik, L. Vaysgerber, G. Ipsen, V. Porzig, A. Yolles kabi olimlar bu nazariyani rivojlantirib, leksik-semantik maydon tushunchasini kengaytirishga hissa qo'shganlar. (Weisgerber, 1953)

O'zbek tilshunosligida ham leksik-semantik maydon nazariyasiga doir tadqiqotlar mavjud bo'lib, ulardan ayniqsa, H. Ne'matov, R. Rasulov, Sh. Iskandarova, E. Begmatov, N. Mahmudov kabi olimlarning ishlari diqqatga sazovordir. Ular o'zbek tilidagi turli leksik-semantik maydonlar, jumladan, “odam”, “faoliyat”, “hayvon”, “o'simlik”, “tabiiy hodisalar” kabi maydonlarni tadqiq etganlar. Biroq, “uyat” leksik-semantik maydoni hozirga qadar qiyosiy aspektda o'rganilmagan.

O'zbek tilidagi “uyat” so'zi qadimiy turkiy ildizlarga ega bo'lib, “uyalmoq”, “uyat”, “uyatli” kabi so'zlar turkiy tillarda keng tarqalgan. “Uyat” so'zining etimologiyasi haqida turli qarashlar mavjud. Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'otit turk” asarida “uya” ildizli so'zlar uchraydi va ular asosan “uyalish”, “xijolat bo'lish”, “or qilish” ma'nolarini anglatgan.

“O'zbek tilining izohli lug'ati”da (Z. Ma'rufov, 1981) “uyat” tushunchasi quyidagicha ta'riflanadi: “Axloq normalariga, jamiyatda qabul qilingan xulq-odob qoidalariga zid xatti-harakatlar, nomaqbul so'zlar tufayli kishida tug'iladigan noqulaylik, xijolat, or-nomus hissi”. Bu ta'rif “uyat” tushunchasining asosiy ma'nosini aks ettiradi, ammo uning barcha semantik qirralarini to'liq qamrab ololmaydi.

Ingliz tilidagi “shame” soʻzi oʻzbek tilidagi “uyat” tushunchasining eng yaqin ekvivalenti hisoblanadi. “The Oxford English Dictionary” (2022) ga koʻra, “shame” soʻzi qadimiy nemis tilidagi “skam/scham” soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, dastlab “sharm-hayo”, “or-nomus” maʼnolarini anglatgan. Proto-german tilida “skamma” ildizidan kelib chiqqan bu soʻz qadimgi ingliz tilida “scamu” shaklida qoʻllangan.

“Shame” soʻzining maʼnosi tarixiy rivojlanish jarayonida bir qator oʻzgarishlarga uchragan. Qadimgi ingliz tilida bu soʻz asosan “uyat”, “isnod” maʼnolarini anglatgan boʻlsa, oʻrta asrlarda uning maʼnosi kengayib, “axloqiy buzilish”, “sharaf va or-nomusni yoʻqotish” kabi tushunchalarni ham oʻz ichiga ola boshlagan. Zamonaviy ingliz tilida esa “shame” soʻzi turli kontekstlarda qoʻllanilib, “uyat”, “or-nomus”, “sharmandalik”, “ayb”, “isnod” kabi maʼnolarni ifodalaydi.

Shuningdek, ingliz tilida “embarrassment”, “guilt”, “dishonor”, “humiliation” kabi tushunchalar ham “shame” tushunchasi bilan maʼlum darajada kesishadi, ammo ular oʻrtasida nozik semantik farqlar mavjud. Masalan, “embarrassment” koʻproq vaziyatga bogʻliq vaqtinchalik noqulaylik hissini anglatadi, “guilt” esa axloqiy qoidalarni buzish natijasida kelib chiqadigan ichki aybdorlik hissi bilan bogʻliq. “Shame” esa bularga nisbatan chuqurroq ijtimoiy-axloqiy tushuncha hisoblanadi.

Oʻzbek tilidagi “uyat” va ingliz tilidagi “shame” tushunchalarining semantik tahlilidan kelib chiqib, quyidagi oʻxshashliklarni qayd etish mumkin:

Ijtimoiy meʼyorlarning buzilishi bilan bogʻliqligi: Har ikki tildagi tushunchalar ham ijtimoiy, axloqiy meʼyorlarning buzilishi natijasida paydo boʻladigan ichki kechinmalarni ifodalaydi. *“Odamlar oldida yolgʻon gapirgani uchun uyaldi.” “He felt ashamed for lying in front of everyone.”* Bundan tashqari jamiyat oldidagi masʼuliyat hissi: Har ikki tildagi tushunchalar ham jamiyat oldidagi masʼuliyat, boshqalar oldida yuz yoʻqotish kabi hissiyotlarni qamrab oladi. *“Qilgan ishidan uyalganidan el koʻziga qaray olmasdi.” “The shame was so overwhelming that he couldn’t look people in the eye.”*

Diniy kontekstning mavjudligi ham ushbu ikki tildagi bir tushunchaning umumiy xususiyati hisoblanadi. Garchi dinlarning oʻziga xos jihatlari tufayli ularning diniy maʼnolari farqlansa ham, har ikki tildagi tushunchalar maʼlum darajada diniy kontekst bilan bogʻliq, masalan, oʻzbek tilida *“Uyat – iymondandir”* mazmunidagi hadis Imom Buxoriyning “Sahihi Buxoriy”ida keltiriladi. (Al-Buxoriy, 1991)

Ingliz tilidagi manbalarda ham *“A sense of shame before God keeps one from sinning”* (Allohdan hayo qilish insonni gunoh qilishdan qaytaradi) mazmunidagi jummalarni uchratishimiz mumkin. (Plain Bible Teaching, 2020)

Leksik-semantik maydon kengayib borishi ham ushbu ikki tildagi “uyat” konseptining oʻxshash jihatlariandir: Har ikki tilda ham ushbu tushuncha keng leksik-semantik maydonning markazi hisoblanadi va bu maydon bir qator oʻzaro bogʻliq tushunchalarni oʻz ichiga oladi. Quyida esa ushbu tushunchaning ingliz va oʻzbek tilida ifodalanishidagi asosiy farqlariga toʻxtalamiz. Asosiy farq bu jamoaviylik va individualizm oʻrtasidagi farq hisoblanadi va oʻzbek tilidagi “uyat” tushunchasi koʻproq jamoaviy madaniyat bilan bogʻliq boʻlib, oila, jamoa, millat oldidagi masʼuliyat hissi bilan chambarchas bogʻlanganligini ifodalasa, ingliz tilidagi “shame” esa koʻproq individualistik madaniyat kontekstida, shaxsiy masʼuliyat, individual axloq doirasida talqin etiladi. (Apresyan, 1995; Safarov, 2008) Masalan, oʻzbek tilida *“Uyating bormi, butun mahalla-koʻy nima deydi!”* qabilida ishlatilsa, ingliz tilida asosan *“He felt personal shame for his actions, regardless of what others thought”* (*U boshqalar nima deb oʻylashidan qatʼi nazar, oʻz qilmishlaridan oʻzi uyaldi*) mazmunida ishlatiladi.

Bundan tashqari, ushbu tushunchaning oʻzbek va ingliz tillaridagi psixologik talqinida ham farq yaqqol seziladi: Ingliz tilidagi “shame” tushunchasi zamonaviy psixologiyada koʻpincha salbiy, destruktiv hissiyot sifatida talqin etiladi va undan “ozod boʻlish” tavsiya etiladi. Oʻzbek madaniyatida esa “uyat” koʻpincha ijobiy, konstruktiv hissiyot, axloqiy kompas sifatida qaraladi. Masalan, oʻzbek mentalitetida *“Uyat bilmaydigan odamdan yaxshilik kutma”*, ingliz tilida esa *“Toxic shame can lead*

to depression and other mental health issues” mazmunida ushbu soʻzning mutlaqo qarama-qarshi ikki kontekstda ishlatilishini koʻrishimiz mumkin.

Ushbu tushunchaning leksik-stilistik belgilanishi ham asosiy farqlaridan biridir. Oʻzbek tilida “uyat” soʻzi neytral stilistik boʻyoq kasb etadi va kundalik soʻzlashuvda keng qoʻllaniladi. Ingliz tilida esa “shame” soʻzi baʼzan badiiy uslubga mansub hisoblanib, kundalik soʻzlashuvda koʻpincha “embarrassment”, “awkward” kabi soʻzlar bilan almashtiriladi. Masalan, oʻzbek tilida kundalik soʻzlashuvda “*Bunaqa gaplarni aytish uyat-ku!*” deya ishlatilsa, ingliz tilida “*That’s so embarrassing!*” deb “*That’s so shameful!*” oʻrniga ishlatilish oʻrinlarini koʻrishimiz mumkin.

“Uyat”/“shame” leksik-semantik maydonining asosiy komponentlarini aniqlash uchun har ikki tilda ham komponent tahlil metodidan foydalanildi. Bu metod orqali asosiy semalar (maʼno komponentlari) aniqlanib, ularning oʻzaro munosabatlari tahlil etildi. Shunday qilib, oʻzbek tilida “uyat” leksik-semantik maydonining asosiy komponentlari sifatida quyidagilarni koʻrsatish mumkin:

1. **Yadro (markaz) komponentlar:**

- “uyat” – asosiy, neytral soʻz, maydonning markaziy tushunchasi;
- “nomus” – oʻz qadr-qimmatini va obroʻsi bilan bogʻliq uyat hissi;
- “or” – erkaklik gʻururi, qadr-qimmat bilan bogʻliq uyat.

Masalan: “*Or-nomusli yigit hech qachon oʻz soʻzidan qaytmaydi.*”

2. **Yadro atrofi komponentlari:**

- “hayo” – uyat hissi bilan oʻxshash boʻlsa-da, aslida andisha va iboga yaqin fazilat tarzida namoyon boʻladi, u nafosat bilan uygʻunlashib ketadi;
- “andisha” – boshqalarning fikri va hissiyotlariga hurmat;
- “ibo” – ayollarga xos boʻlgan uyat, tortinchoqlik;
- “xijolat” – noqulay vaziyatda his qilinadigan uyat.

3. **Periferik komponentlar:**

sharmandalik – ommaviy uyat, obroʻsizlik;
isnod – yomon ish tufayli keladigan uyat;
sharmisor – kuchli uyat hissi, uyatga qolish;
uyatsizlik – uyat hissining yoʻqligi (antonim).
Misol: “*Bu ish butun oilani sharmanda qildi.*”

Ingliz tilida esa “shame” leksik-semantik maydonining asosiy komponentlari sifatida quyidagilarni koʻrsatish mumkin:

1. **Yadro (markaz) komponentlar:**

Shame - asosiy, neytral soʻz, maydonning markaziy tushunchasi;
guilt - aybdorlik hissi, koʻpincha “shame” bilan birga keladi;
embarrassment - vaziyatga bogʻliq qisqa muddatli uyat hissi.

Misol: “*The shame and guilt he felt after betraying his friend was overwhelming.*” (Doʻstiga qilgan xiyonati unga cheksiz uyat va pushaymon keltirdi)

2. **Yadro atrofi komponentlari:**

Humiliation - boshqalar tomonidan kamsitilish natijasidagi uyat;
disgrace - obroʻni yoʻqotish bilan bogʻliq uyat;
dishonor - shaʼn va qadr-qimmatga putur yetishi;
mortification - chuqur uyat hissi.

Masalan: “*The public humiliation left him feeling completely broken.*” (Omma koʻz oʻngida sharmanda boʻlish uning ruhini sindirdi.)

3. **Periferik komponentlar:**

ignominy - ommaviy sharmandalik (badiiy uslubga tegishli);
opprobrium - jamiyat tomonidan qoralanish (badiiy uslubga tegishli);
chagrin - muvaffaqiyatsizlik tufayli his qilinadigan uyat;

shamelessness - uyat hissining yo'qligi (antonim).

Misol: *"The politician resigned in ignominy after the scandal". (Mojarro tufayli siyosatchi sharmanda bo'lib, iste'fo berishga majbur bo'ldi.)*

Xulosa sifatida aytish mumkinki, o'zbek va ingliz tillaridagi "uyat/shame" leksik-semantik maydoni o'zining tarkibiy tuzilishi, semantik komponentlari va madaniy asoslari jihatidan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu xususiyatlar til va madaniyatning chambarchas bog'liqligini yana bir bor tasdiqlaydi. Ushbu tadqiqot natijalaridan qiyosiy tilshunoslik, madaniyatlararo kommunikatsiya, tarjima nazariyasi va amaliyoti sohalarida foydalanish mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Al-Buxoriy, M. ibn Ismoil. (1991). *Al-Jomi' as-Sahih* (Z. Ismoil, Tarj., 1-jild). Qomuslar Bosh tahririyati.
2. Begmatov, E. (2013). *O'zbek tilining leksik qatlamlari*. Toshkent: Fan.
3. Iskandarova, Sh. (2007). *O'zbek tili leksikasining mazmuniy maydon sifatida o'rganilishi*. Toshkent: Fan.
4. Koshg'ariy, M. (2017). *Devonu lug'otit turk* (Z. Sodiqov tarjimasi). Toshkent: Mumtoz so'z.
5. Ma'rufov, Z. (1981). *O'zbek tilining izohli lug'ati*. Moskva: Rus tili nashriyoti.
6. Mahmudov, N. (2017). *Til tilsimi tadqiqi*. Toshkent: Mumtoz so'z.
7. Ne'matov, H., Rasulov, R. (1995). *O'zbek tilining sistem leksikologiyasi asoslari*. Toshkent: O'qituvchi.
8. Porzig, W. (1934). "Wesenhafte Bedeutungsbeziehungen". *Beiträge zur Geschichte der deutschen Sprache und Literatur*, 58, 70-97.
9. Trier, J. (1934). *Das sprachliche Feld: Eine Auseinandersetzung*. Neue Jahrbücher für Wissenschaft und Jugendbildung, 10, 428-449.
10. Weisgerber, L. (1953). *Vom Weltbild der deutschen Sprache*. Düsseldorf: Schwann.
11. Oxford English Dictionary. (2022). "Shame". Oxford University Press.
12. Apresyan, Yu.D. (1995). *Izbrannyye trudy: Integral'noye opisaniye yazyka i sistemnaya*
13. Safarov, Sh. (2008). *Pragmalingvistika*. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
14. <https://plainbibleteaching.com/2020/07/01/shame-a-biblical-perspective/>